

MINTAQА TABIIY XOM-ASHYO RESURSLARI - INVESTITSIYALARНИ JALB QILISH OMILI SIFATIDA

PhD **Norqobilov Nusratilla Norsaitovich**

Termiz davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-5032-960C

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston respublikasining janubiy mintaqasi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tabiiy xom-ashyo resurslari-investitsiyalarни jalb qilish omili sifatida o'r ganilgan, investitsiyalarни jalb qilish, investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilingan hamda tegishli xulosalar keltirilgan. Mintaqalarda tabiiy, yer, suv, mehnat resurslardan samarali foydalanilgan holda innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish, ixtisoslashgan tarmoqlarga investitsiyalarни diversifikatsiyalash va uni o'zaro kooperatsiya aloqalari asosida muvozanatli rivojlanadirish strategik rejalashtirishga moslashtirilgan yondashuvni taqozo etadi. O'zbekistonga xos bo'lgan nazariy asoslar, metodologik yondashuvlar va real amaliyotlarni tahlil qilib, ushbu maqola mamlakat mintaqalarida iqtisodiy o'sishni va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun strategik rejalashtirishdan qanday samarali foydalanish mumkinligi haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: tabiiy xom-ashyo resursi, investitsiya qarori, investitsion siyosat, investitsiya muhiti, infratuzilma holati, hududlarning investitsion reytingi, xorijiy investitsiyalar.

ПРИРОДНЫЕ РЕСУРСЫ РЕГИОНА - КАК ФАКТОР ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ

PhD **Норкабилов Нусратилла Норсайтович**

Термезский государственный университет

Аннотация: В статье исследованы Кашкадарьянская и Сурхандарьинская области южного региона Республики Узбекистан как фактор привлечения природно-сырьевых инвестиций, проанализированы инвестиционная привлекательность, инвестиционные возможности и представлены соответствующие выводы. Организация инновационного производства с эффективным использованием природных, земельных, водных и трудовых ресурсов в регионах, диверсификация инвестиций в специализированные отрасли и сбалансированное их развитие на основе взаимного сотрудничества требуют адаптированного подхода к стратегическому планированию. Анализируя теоретические основы, методологические подходы и реальную практику, характерную для Узбекистана, данная статья дает представление о том, как стратегическое планирование может эффективно использоваться для содействия экономическому росту и устойчивому развитию в регионах страны.

Ключевые слова: природно-сырьевые ресурсы, инвестиционные решения, инвестиционная политика, состояние инфраструктуры, инвестиционной среды, инвестиционный рейтинг регионов, иностранные инвестиции.

NATURAL RESOURCES OF THE REGION- AS A FACTOR OF INVESTMENT ATTRACTION

*PhD Norkabilov Nusratilla Norsaitovich,
Termiz State University*

Abstract. In the article, the Kashkadarya and Surkhandarya regions of the southern region of the Republic of Uzbekistan are studied as a factor of attraction of natural raw materials-investments, investment attraction, investment opportunities are analyzed and relevant conclusions are presented. Organization of innovative production with effective use of natural, land, water, and labor resources in the regions, diversification of investments in specialized industries and balanced development of it based on mutual cooperation requires an adapted approach to strategic planning. Analyzing theoretical frameworks, methodological approaches and real practices specific to Uzbekistan, this article provides insight into how strategic planning can be effectively used to promote economic growth and sustainable development in the country's regions.

Key words: natural raw materials resources, investment decisions, investment policy, investment environment, infrastructure condition, investment rating of regions, foreign investments.

Kirish.

Mintaqalar iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida har yili investitsion dastur qabul qilinadi. Ushbu dasturlarda tabiiy xom-ashyo resurslari investitsiyalarni jalg qilish omili sifatida, ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritish, korxonalarining investitsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiya qilish hamda texnologik jihatdan qayta qurollantirish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni keng jalg etish, ulardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinalarini yaratish va shu asosida respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta'minlashga qaratiladi.

Mintaqada investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida investitsiya loyihamalarini ishlab chiqish, tanlab olish va amalga oshirishning muntazam, tugal bir tizimini shakllantirishga to'g'ri keladi. Bunda amalda sinalgan tajribalarga tayanib, investitsiya loyihamalarini baholash va tahlil qilish jahon mamlakatlarida qabul qilingan standart uslubga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mintaqalar tabiiy xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish barqaror o'sishini ta'minlashda ichki va tashqi investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash bo'yicha bir qancha olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, professor Karimovning (2010) mamlakatlar hududida yangi korxona yaratish, mavjud korxonalarini zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida, Mustafaqulovning (2017) ilmiy ishlarida mintaqalardagi tabiiy resurslar zahirasi, investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar, infratuzilma holati, hududlarning asosiy salohiyati investitsiyalar hajmi yuzasidan taklif va tavsiyalarini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, tadqiqotchi Valiev (2021) tomonidan O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi, Maxmudov (2022) mintaqalardan iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirish investitsiyalar va ulardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari masalalari tadqiq etilganligini keltirish mumkin.

Biroq mintaqalardan iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalg qilish tabiiy xom-ashyo resurslari investitsiyalaridan samarali foydalanish borasidagi ilg'or xorij tajribalaridan ijodiy foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar alohida mustaqil ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Ushbu ilmiy muammoni iqtisodiy adabiyotlarda etarli darajada

aniqlashtirilmaganligi va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur maqolaning mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induktsiya va deduktsiya usullari, mahalliy va xorijiy olimlarning sug'urta faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'r ganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2023 yilda mintaqada O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 10,6 foizi, shuningdek, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jalik mahsulotining 16,8 foizi, sanoat mahsulotining 5,6 foizi, elektr-energiyaning 14,7 foizi, oziq-ovqat mahsulotlarining 8,6 foizi, to'qimachilik mahsulotlarining va 12,6 foizi, kimyo mahsulotlarining 13,5 foizi ishlab chiqarilgan³⁷.

Bundan tashqari, mamlakatda ishlab chiqarilgan iste'mol mollarining 4,8 foizi, xizmatlarning 8,3 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 11,2 foizi, aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiyalar chakana savdo tovar aylanma hajmining 12,5 foizi hamda respublika tashqi savdo aylanmasining 4,3 foizi mazkur mintaqqa hissasiga to'g'ri keldi.

Mintaqa iqtisodiyoti hozirgi vaqtida mintaqaga yuksak iqtisodiy salohiyatga molik bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Mintaqadagi mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyat quyidagicha ifodalanadi .

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga baho berishda xususan ularning mavjudligi, miqdori, balki bu boylikning turi hududiy joylashuvi va majmulariga katta ahamiyat qaratish kerak (1-jadaval).

1-jadaval

Janubiy mintaqaning tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga iqtisodiy geografik baho berish shkalasi

Tabiiy geografik komponentlar	Ijtimoiy-iqtisodiy sohalar				
	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Transport	Aholi joylashuvi	Rekreatsiyalar va turizm
Mineral xom ashyo resurslari	+	+	+	-	+
Yer resurslari	+	++	-	-	+
Suv resurslari	+	+	+	+	+
Mehnat resurslari	++	+	+	+	+
Iqlim	++	+	+	+	+
O'simlik duniyosi	+	-	-	-	+
Hayvonot dunyosi	+	-	-	-	+

Izoh: ++ ta'siri kuchli , + ta'siri bor, -ta'siri deyarli yo'q.

1-jadvaldagagi ma'lumotlarga asoslanib janubiy mintaqaning mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyati xususiyatining quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

³⁷ O'z.stat.uz. ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

- mintaqadagi agroqlim resurs zaxiralari (quyoshli kunlar ko'pligi, sovuq kunlar kamligi va boshqa.) qishloq xo'jalik ekinlari aylanmasida ertapishar, issiqsevar ekinlarni ko'paytirish hamda qish mavsumida issiqxona xo'jaliklari xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi;

- agrar sektor rivojlanishiga asos bo'ladigan suv omborlari va bo'sh zaxira yerlarining mavjudligi;

- tabiiy gaz, toshko'mir, neft va gaz kondensati zaxiralari ko'pligi;- cho'l yaylovleri, tog'li va tog' oldi hududlari mavjudligi, chorvachilikni rivojlantirishga qulayligi;

- mintaqadagi qadimiy ziyyaratgoh qadamjolar, tarixiy obidalar va so'lim tabiat turizm sohasini rivojlantirishga imkon beradi.

Aholi o'rtacha soni o'sish ko'rsatkichlari va mehnat resurslari taklifi ko'pligi mintaqada iqtisodiyotini rivojlantirishda yuqori salohiyatga egaligini anglatadi. Janubiy mintaqada tabiiy resurslar bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan. Asosiy gaz konlari-Zevardi, Muborak, Sho'rton, Ko'kdumaloq, Qo'ltoq, Odamtosh, Uvada, G'uzor, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on va Boysun boshqalar mavjud. Gaz tarkibida oltingugurt, gaz kondensati bor. Tabiiy gazning umumiy zahirasi uni chet davlatlarga ham yetkazib berish imkonini beradi. Sho'rtan gazi Sirdaryo GRES va Toshkent shahrigacha olib borilgan. Muborak gaz koni O'rta Osiyo - Ural va O'rta Osiyo - Markaz magistral gaz quvurlariga ulangan. Boysun va Sariosiyo tog'laridan yuqori sifatli toshko'mir qazib olinadi.

Toshko'mirning Sharg'un va Boysun konlari mavjud. Neft (gaz kondensati) konlaridan Ko'kayti, Xavdak, Qo'shquduq va ayniqsa, yirik Ko'kdumaloq konlari mavjud.

Kimyo sanoatining xom ashyosi hisoblanmish kaly tuz konlari (yirik konlari Tubakat, Oqbosh) va osh tuzi (yirik koni Boybichakon, Xo'jaikon) mavjud. Bundan tashqari qurilish materiallari syement xom ashyosi, gips, qoplamlari qumlar, bentonit tuproqlari, granit, dolomit keramzit konlari aniqlangan. Umuman olganda mintaqada 118 ta foydali qazilma konlari va mineral xomashyo zaxiralari mavjud. Jumladan, hozirgi kunda aniqlangan gaz zaxiralari -1452 mlrd. m³ ni, neft- 85,8 mln. tonna, kondensat 62,0 mln. tonna, ko'mir-115,2 mln. tonna, tosh tuzlari 20361,0 mln. tonna, kaly tuzlari- 798,7 mln. tonna, syement xom ashyosi - 530,2 mln.tonna, qurilish materiallari -3958,0 mln. tonna, 69,4 mln.tonna metall konlari, 75 mln. tonna gips, 41 mln. tonna oyna ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo, 175 mln. tonna yoda - brom, 6,5 mln. tonna ohak, 4975 ming ming. m³ marmar, 1,2 mln. tonna marganes va boshqa xomashyo zaxiralari aniqlangan.

Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, neft, osh va kaly tuzi, syement xom ashyosi, marmar, noruda materiallar va boshqa resurslarning katta zaxiralari mavjud.

Janubiy mintaqada O'zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda yoqilg'i resurslari bo'yicha muhim o'rnlarni egallaydi. Keyingi yillarda mintaqada topilgan yangi neft va gaz konlari mintaqada iqtisodiyoti rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratdi. Tabiiy gaz va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish sanoatning joylashuvini tubdan o'zgartirdi. Masalan, mintaqada yirik sanoat: yoqilg'i-energetika, kimyo, qurilish materiallari va to'qimachilik materiallari sanoati vujudga keltirildi.

Mintaqa sanoati va uning tarmoqlari. Sanoatni maqsadga muvofiq joylashtirish mintaqaning boy tabiiy resurslaridan to'la foydalanishga imkon beradi. Jumladan, Qashqadaryodagi kaly tuzi konlari negizida kalyili o'g'itlar ishlab chiqaradigan Tepachatan kalyi zavodi qurilishi mo'ljallangan.

Muborak gazni qayta ishlash majmuasi asosida esa kimyo sanoatining yangi tarmoqlarini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Hozirgi kunda Muborak gazni qayta ishlash majmuasida kimyo sanoati uchun asosiy xom ashyoga bo'lgan sulfat kislotasi va qishloq xo'jalik o'simliklarini kasallik va zararkunandalardan kimyoviy himoya qilishda qo'llaniladigan oltin gugurt kukuni ishlab chiqariladi.

Mintaqada mamlakatimiz tabiiy gaz qazib olish salohitining 85 foizi joylashgan bo'lib, tabiiy gaz qazib olishning o'sishi 2021 yilgacha mintaqada yetakchilik qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi qaroriga asosan "Tallimardon IES" Ajda jami quvvati 900 MV tga teng bo'lgan ikkita bug'-gaz turbina qurilmalarini qurib foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Yoqilg'i-energetika resurslari gaz, neft, suyuq gaz kondensat, etan va boshqa elementlari mintaqa hududida G'uzor tumanida yirik "Sho'rtangaz kimyo" majmuasining, "O'zbekiston GTL" zavodi, Sariosiyo tumanida "Sharg'un ko'mir" konining hamda Boysun tumanidagi "Mustaqillikning 25 yilligi" gaz ob'yekti, Sherobod tumanida "Abu Dhabi Future Energy Company PJSC – Masdar" (BAA) kompaniyasi fotoelektr stansiyasini, Angor tumanida Niderlandiyaning "Stone City Energy" kompaniyasi bilan quvvati 1560 MV bo'lgan issiqlik elektr stansiyasining ishga tushirilishiga olib keldi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida neft zahiralari hajmi 82,8 mln.t.ni tashkil etishi aniqlangan³⁸. Ushbu hududa qazib olingan neft Qorovulbozor va Jarqo'rg'on neftni qayta ishslash zavodlarida qayta ishlanadi.

Janubiy mintaqa xomashyo zahiralarini uch guruhga: tog'-kimyo, qurilish materiallari va tog' rudalariga ajratish mumkin. Marganes va yarim metall rudalar foydali qazilma koni kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi va u mamlakatimizdagi yagona kon bo'lib, uning aniqlangan zaxiralari 795,6 mln.tonnadan iborat. Syement xomashyosi, ohak, marmar, gips, noruda materiallar – shag'al, qumlar zaxirasi ikkala viloyatning ehtiyojini to'liq qoplay oladi.

Ko'pgina tadqiqotlardan farqli ravishda biz tabiiy-iqtisodiy salohiyatini qishloq ma'muriy tumanlari darajasida o'rganishga harakat qildik. Bu esa aniq tumanlar kesimida korxonlarni joylashtirishni ijobiy va miqdoriy natijalarini aniqlashga imkon beradi. Mintaqaning barcha 27 tumanida mineral xomashyo resurslari mavjud bo'lsada, Dehqonobod, Mirishkor, Kitob va G'uzor, Boysun, Sherobod, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sariosiyo tumanlari yuqori salohiyatga ega.

Janubiy mintaqaning tashqi savdo aylanmasi 2023 yilda 1104,9 mln. Bunda 661,9 mln. dollar eksport, 559,1 mln. dollar import mahsulotlaridir. Iqtisodiyotning xom ashyo tayyorlash bo'yicha ixtisoslashuvi uning salohiyatiga nisbatan eksportning katta bo'lishiga olib keldi.

Mintaqaning umumiylar maydoni 4866,7 ming hektar respublikaga nisbatan 11,2 foizni, sug'oriladigan yerlar 841,5 ming hektarni 19,4 foizni, qishloq xo'jaligi yerlari 3370,8 ming hektarni respublikaga nisbatan 13,2 foizni tashkil etadi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida iqtisodiy faol aholi soni 2 million 400 ming kishidan ortiqni tashkil etib, respublikaga nisbatan 17,3 foizni tashkil etadi³⁹.

Iqtisodiyotda band aholi soni 1381,6 ming nafar, mehnatga layoqatli aholi bilan mehnatga layoqatsiz aholi nisbati ancha farqlanadi. 2023 yilda iqtisodiy faol aholining 0,3 foizi (9,2 ming kishi) ish qidiruvchi sifatida ro'yxatga olingan. Mintaqadagi ishsizlar soni unchalik aniq emas. Chunki, yuqorida qayd etilgan ishsizlar soni faqat mehnat birjalariga ish so'rab murojaat etganlardir. Shu bilan birga shahar joylardagi ish qidiruvchilarining ko'pchilligi ham mehnat birjalariga murojaat qilinishni lozim topmaydilar. Buning sabablaridan biri mehnat birjalarini yaxshi takomillashmaganligidir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlantirishda va uning raqobatbardoshligini ta'minlashda qulay investitsiyalash sharoitiga ega. Biroq bu imkoniyatlar mintaqaning sanoqli hududlarida joylashgan. Shu sababdan iqtisodiyotni yuksalatirish va uning hududiy muvozanatligrini ta'minlashda mintaqaning o'ziga xos tabiiy xom-ashyo resurslari salohiyati hamda imkoniyatlari hisobga olgan holda investitsiyalarni keng jalg etish taqozo etiladi. Bu o'rinda har bir hudud iqtisodiyotni ixtisoslashtirish va uni rivojlantirida ularga xos bo'lgan strategik yo'naliishlarning ishlab chiqilganligi ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan birga, mintaqalar iqtisodiyotiga to'g'ridan-

³⁸ Qashqadaryo viloyat hokimligi yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanish markazi ma'lumotlari

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'nalishlarini aniqlab olish uchun tarmoqlar hududlar xususiyatidan hisobga olgan holda klasterlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, mintaqalarda (tabiiy, yer, suv, mehnat) resurslardan samarali foydalanilgan holda innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish, ixtisoslashgan tarmoqlarga investitsiyalarni diversifikatsiyalash va uni o'zaro kooperatsiya aloqalari asosida muvozanatli rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ham ma'lumki, xorijiy investitsiyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga integratsiyalashuv va jahon bozoriga chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar / Йумерамып/ Reference:

Karimov N.G'. (2010) *Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari: monografiya*. -T.: Fan va texnologiya, 240 b.

Maxmudov S.Sh. (2022) *Mintaqa iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirish (Qashqadaryo viloyati misolida) Iqtisodiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*.

Mustafaqulov Sh. I. (2017) *"O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtorefarat*. Toshkent.

Valiev B.B. (2021) *O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi* Iqtisodiy fanlari doktori (Doktor of science) dissertatsiyasi avtoreferati.

Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X. (2010) *Xorijiy investitsiyalar* –T. "Moliya" 156-bet.